IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 7,245
MAXSUS SON . VOLUME 5, ISSUE 1, 2023

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA NIKOH TUZISH TARTIBI VA SHARTLARI

Muallif	[1] **Abdurasulova Sabrina Sanjar qizi , [2]Nazarov Elbek Shermaxmatovich**
O'qish yoki ish joyi	[1] **Termiz davlat universiteti Yuridik fakulteti Yurisprudensiya(faoliyat turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabasi, [2] Ilmiy rahbar**
Qabul qilindi	**25.09.2023**
Nashr qilindi	**29.09.2023**

Annotatsiya

Ushbu maqolada yurtimizda muqaddas bo'lgan nikoh tuzish, uni tartibi, va shartlari borasida so'z boradi.

Kalit so'zlar

Nikoh, shartnoma, modda, Oila kodeksi, layoqat, ishonchnoma, ma'lumotnoma, FHDYO.

Ikki yosh voyaga yetib, ma'lum belgilangan yoshga yetdimi, ular o'zaro roziligi bilan turmush qurishi, nikohdan o'tishlari mumkin. Bu O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 14- va 15-moddalarida ham keltirib o'tilgan. Yana bir holat borki, ya'ni uzrli sabablar mavjud bo'lganda, alohida holatlarda (homiladorlik, bola tug'ilishi, voyaga yetmaganning to'la muomalaga layoqatli deb e'lon qilinishi — emansipatsiya), nikoh tuzishni xohlovchi shaxslarning iltimosiga ko'ra nikoh tuzilganligini qayd etish joyidagi tuman, shahar hokimi tomonidan nikohga kirish yoshi bir yildan ko'p bo'lmagan muddatga kamaytirilishi mumkin. Nikohni qayd etish faqat nikohlanuvchi shaxslarning ishtirokida amalga oshiriladi. FHDYO organlari nikohlanuvchi shaxslarning tibbiy ko'rikdan o'tganligiga hamda ushbu tekshiruvlarning natijalari to'g'risida ularning xabardor ekanligiga ishonch hosil qilishi kerak. Nikohning ishonchnoma bo'yicha yoki vakil orqali shuningdek, tibbiy tekshiruvdan o'tganligi to'g'risida ma'lumotnoma bo'lmaganda nikoh qayd etilishiga yo'l qo'yilmaydi.

FHDYO organlari tomonidan nikohlanuvchi shaxslarning nikohini qayd etish to'g'risidagi arizasi qabul qilingandan so'ng, ularga belgilangan tartibda tibbiy ko'rikdan o'tish uchun yo'llanma beriladi. FXDYO organlari xodimlari nikohni qayd etish vaqtida ularga ma'lum bo'lgan shifokorlik sirlaridan iborat bo'lgan ma'lumotlarni oshkor etganligi uchun javob beradilar. Jazoni o'tash muassasalari ma'muriyati sudlanganlarni nikohdan oldin tibbiy ko'rikdan belgilangan tartibda o'tkazadi. Uzrli sabablar bo'lganda FHDYO organi bir oy o'tgunga qadar nikoh tuzishga ruxsat berishi mumkin. Bunda uzrli sabablarni tasdiqlovchi – bolalarining tug'ilganligi haqidagi guvohnomalari, tibbiy muassasaning kelinning homiladorligi haqidagi ma'lumotnomasi, xizmat safari to'g'risidagi va shu kabi hujjatlar taqdim etiladi.

Alohida hollarda (homiladorlik, bola tug'ilishi, bir tarafning kasalligi va boshqalar) nikoh tuzilganligi ariza berilgan kuni qayd etilishi mumkin. Bunday holda nikoh tuzilganligini qayd etish haqidagi arizaning yuqori chap burchagiga asoslantirilgan yozuv kiritiladi va FHDYO organi rahbarining imzosi bilan tasdiqlanadi.

Tibbiy ko‘rikdan o‘tgandan keyin nikoh tuzilishiga O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 16-moddasida nazarda tutilgan to‘siq mavjud bo‘lmagan taqdirda FHDYO organlari tomonidan nikohni qayd etish belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining chet el fuqarolari bilan nikoh tuzilganligini qayd etishda arizaga chet el fuqarosining shaxsini tasdiqlovchi hujjatining nusxasi va uning tarjimasi hamda chet el fuqarosining oilaviy ahvolini tasdiqlovchi hujjatlar belgilangan tartibda legalizatsiya qilingan yoki apostil qo‘yilgan holda ilova qilinadi.

Nikohlanuvchi shaxslarda tekshirish natijasida darhol davolash kursidan o‘tishni talab etuvchi kasalliklar aniqlangan taqdirda, ular belgilangan tartibda tegishli davolash muassasalariga yo‘naltiriladi. Agar nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish natijasida ularning bittasida yoki har ikkalasida mazkur Nizomning 1-ilovasida nazarda tutilgan kasallik aniqlangan taqdirda, nikohni qayd etish tomonlarning ushbu tekshirish natijalaridan xabardorligi tasdiqlangandan keyin amalga oshiriladi. Aholi o‘rtasida olib borilgan so‘rovlar va ular bilan xotin-qizlar qo‘mitalari, tibbiyot, mahalla fuqarolar yig‘inlari, o‘quv yurtlari xodimlari bilan o‘tkaziladigan o‘zaro muloqotlar, davra suhbatlari, seminar mashg‘ulotlarida bo‘ladigan bahs-munozalarda shunday xulosaga kelindiki, nikohlanuvchi yoshlarning nikohga kirish haqida arizani 1 oy oldin berish hamda tibbiy ko‘rikdan o‘tish lozimligi to‘g‘risidagi talablarga rioya etmasligi natijasida to‘ydan keyin bola tug‘ilgandan so‘ng, FHDYO organiga murojaat qilishlari, yosh qizlarni belgilangan nikoh yoshiga yetmasdan turmushga berish hamda yoshlar o‘rtasida erta ajrim holatlari, yolg‘iz onalar arizalarining ortishiga sabab bo‘lmoqda.

0‘zbekiston respublikasida nikoh yoshi ayollar uchun 17, erkaklar uchun esa 18 yosh etib belgilangan.

Hayot tajribasi shuni ko‘rsatadiki, nikohdan o‘tishning minimal yoshida turmush qurish ajralishlar sonining ko‘payishiga sabab bo‘lmoqda. Ma’lumki, oila huquqi nikoh tuzayotgan shaxslardan bir-birining salomatligi holatlari bilan tanishishini talab etadi. Oila kodeksining 17-moddasida nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish maqsadga muvofiqligi qayd etilgan. Hozirgi kunda, nikohni qayd qilishda turmush quruvchilarni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish majburiydir. Ruhiy nosog‘lom shaxslarning nikoh tuzishi oila qonunchiligimizning asosiy printsipiga ziddir va bunday shaxslar o‘rtasida nikoh tuzilishi man etiladi.

Nikoh tuzish nikohlanuvchilarning fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlariga ariza berganlaridan keyin bir oy o‘tgach, shaxsan ularning ishtirokida amalga oshiriladi.

Ko‘pincha yoshlar tezroq turmush qurishni o‘ylaydilar. Lekin o‘z munosabatlarining bir-biriga qanchalik to‘g‘ri kelishini e’tibordan chetda qoldiradilar. Oqibatda ba’zan er va xotin xarakterlari bir-biriga to‘g‘ri kelmay qoladi, ya’ni ular bir-birini tushunishni istamay qoladilar. Bu borada sud amaliyoti xususida to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiqdir.

Nikohdan ajralish to‘g‘risidagi da’voni ko‘rishda sudlar oila manfaatlarini himoya qiladi. Oila kodeksining 40-moddasiga ko‘ra, sud oilaning ichki kelishmovchiliklarini hal qilish va oilani qayta tiklash uchun olti oygacha muhlat berishi mumkin. Agar er va xotinning bundan buyon birgalikda yashashiga va oilani saqlab qolishiga imkon bo‘lmasa, sud nikohni bekor qilishni kechiktirmaydi.

Mulkiy muammolami hal etishda, Oila kodeksining 27-moddasiga binoan er va xotinning umumiy mol-mulkini boiish er va xotindan birining talabiga ko‘ra,

ular nikohda bo‘lgan davrda ham, nikohdan ajralishgandan keyin ham, er va xotinning umumiy mol-mulki er va xotin o‘rtasida o‘zaro kelishuv asosida bo‘lib olinishi mumkin. Er va xotinning xohishi bilan ulaming umumiy mol-mulkini bo‘lish to‘g‘risidagi bu kelishuv, ya’ni nikoh shartnomasi, albatta, notarial tartibda tasdiqlanishi lozim. Nikoh shartnomasi er va xotinning mavjud mol-mulkiga nisbatan ham, bo‘lg‘usi mol-mulkiga nisbatan ham tuzilishi mumkin.

Quyidagi holatlarda nikoh tuzishga yo'l qo'yilmaydi:

Nikohga kiruvchilaming loaqal bittasi ro'yxatga olingan boshqa nikohda bo'lsa; Nasl-nasab shajarasi bo'yicha to'g'ri tutashgan qarindoshlar (bobo, buvi, ota-ona, farzandlar, nevara va chevaralar) o'rtasida, tug'ishgan va o'gay aka-ukalar bilan opa-singillar o'rtasida, shuningdek farzandlikka oluvchilar bilan farzandlikka olinganlar o'rtasida;

Nikohga kiruvchilaming loaqal bittasi mhiyati buzilishi (ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi) sababli sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi qo'shxotinlikni taqiqlaydi. Respublikamizning Jinoyat Kodeksi 126-moddasida ko'p xotinlilik, ya'ni ikki yoki undan ortiq xotin bilan er-xotin bo'lib yashash jinoyat hisoblanadi.

Ma'lumki, qarindoshlar o'rtasidagi nikoh oqibatida ko'pchilik bolalar nogiron bo'lib tug'ilishadi. Shifokar fikricha, yaqin qarindoshlar: amaki, xola, tog'a va ammavachalarning farzandlari o'rtasidagi nikohiy munosabatlar ham salbiy oqibatlarga olib keladi.

Ruhiy kasalligi bo'lgan shaxsning kasalligini bekitib, balki nikohiy munosabat natijasida tuzalib ketadi deb ayirim ota-onalar qonun buzilishga ham yo'l qo'yadilar. Natijada nikohning bekor qilinishi, oilada nogiron farzand tug'ilishi kabi fojialar ham sud amaliyotida uchrab turadi.

O'zbekiston Respublikasi oila qonunchiligida ilk bor nikoh shartnomasi to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

Nikohlanuvchilar o'rtasida nikoh shartnomasi nikohga qadar ham, nikoh davrida ham tuzilishi mumkin, Bu shartnomaga ko'ra birgalikdagi umumiy mulkning qonunda belgilangan tartibi o'zgarishi mumkin. Nikoh shartnomasiga ko'ra er va xotinning birgalikdagi mol-mulkiga, uning ayrim turlariga yohud ulaming har birining mol-mulkiga nisbatan birgalikdagi, ulushli yoki alohida egalik qilish tartibi o'matilishi mumkin.

Nikoh shartnomasi er va xotinning mavjud mol-mulkiga nisbatan ham, bo'lg'usi mol-mulkiga nisbatan ham tuzilishi mumkin.

Oila kodeksida nikoh shartnomasiga 29-36-moddalar ajratilgan. Ularda nikoh shartnomasi tushunchasi, shartnomasini tuzish asoslari, nikoh shartnomasining mazmuni, nikoh shartnomasini o'zgartirish va bekor qilish, nikoh shartnomasini haqiqiy emas deb topish, haq undirishni er-xotinning mol-mulkiga qaratish, nikoh shartnomasi tuzish, uni o'zgartirish va bekor qilishda kreditorlar huquqlarining kafolatlari va er-xotin o'rtasidagi mulkiy-shartnomaviy munosabatlar bayon etilgan.

Nikoh shartnomasi taraflari faqat nikohga kiruvchilar va nikohdagi er-xotindan iborat bo'lishi mumkin. Nikoh shartnomasi notarial kontoralarda tuziladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O. Karimova “Oila huhuhi” ma'ruzalar matni T., “Yzbekiston”
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T., «Adolat», 2000.
3. Islom Karimov. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. T., «O'zbekiston», 1999.
4. Islam Karimov. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. T., «O'zbekiston», 1998.
5. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. T., «Adolat», 1998.
6. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksiga sharhlar. T., «Adolat»,2000.

KNOWLEDGE